



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI

**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**

TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



**TERMIZ DAVLAT MUHANDISLIK VA
AGROTEKNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

Davlat oliy ta'lim tashkiloti

60710200 – Biotexnologiya
Bakalavriat



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

60710200 – Biotexnologiya

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

**TERMIZ DAVLAT MUHANDISLIK VA AGROTEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI**

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: EGAMBERDIYEVA DILFUZA RUSTAMOVNA

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

falsafa doktori (PhD)



A'zo: AHMAD HAMIDOV

Humboldt University of Berlin (Germaniya)

falsafa doktori (PhD)

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260061
Xulosa raqami	1406
Xulosa sanasi	13.07.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"TERMIZ DAVLAT MUHANDISLIK VA AGROTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI" DAVLAT MUASSASASI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Surxondaryo viloyati, Termiz shahri, Islom Karimov ko'chasi, 288-A-uy. Litsenziya: № 533090, 19.07.2017. Guvohnoma: MAS № 0000373, 23.07.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Biotexnologiya
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	60710200
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	№ 533090, 19.07.2017
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Davlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	60710200 – Biotexnologiya
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	60710200 – Biotechnology
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	60710200 – Биотехнология
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi / kechki
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	240 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	4 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Muhandis biotexnolog (qishloq xo'jaligi bo'yicha)
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	200 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Surxondaryo viloyati, Termiz shahri, Islom Karimov ko'chasi, 288-A-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalar, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

O'rganilgan hujjatlar hamda taqdim etilgan ma'lumotlar asosida ta'lim dasturini boshqarish va ichki sifatni ta'minlash tizimi kompleks baholandi. Tahlil natijalari 60710200 – “Biotexnologiya” bakalavriat ta'lim dasturining respublika ilm-fani hamda ishlab chiqarish tarmoqlari uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashda strategik ahamiyat kasb etishini ko'rsatdi. Shuningdek, ta'lim dasturini samarali amalga oshirish uchun mas'ul tarkibiy tuzilma faoliyati yo'lga qo'yilgani, ichki sifatni ta'minlash mexanizmlari shakllantirilgani hamda dastur ijrosini muntazam monitoring qilish tizimi amalda qo'llanayotgani e'tirof etildi. Biotexnologiya sohasining jadal rivojlanishi va ilmiy-texnologik yangilanishlar sur'atini inobatga olgan holda, ta'lim dasturi mazmunini muntazam takomillashtirib borishga xizmat qiluvchi boshqaruv mexanizmlarining mavjudligi uning dolzarbligi va raqobatbardoshligini ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida baholandi. Baholash yakunlariga ko'ra, tashkiliy-boshqaruv tizimi va ichki sifatni ta'minlash mexanizmlari akkreditatsiya mezonlarida belgilangan talablarga mos ravishda yo'lga qo'yilgani qayd etildi.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

Taqdim etilgan o'quv-me'yoriy hujjatlar, o'quv rejalari, fan dasturlari hamda ta'lim dasturining mazmuni kompleks tahlil qilindi. Baholash natijalari dastur zamonaviy ta'lim yondashuvlari, mehnat bozori ehtiyojlari va ilg'or xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqilganini, uning maqsadlari hamda kutilayotgan o'quv natijalari davlat ta'lim standarti va Milliy malakalar ramkasi talablariga to'liq mos kelishini ko'rsatdi. Shuningdek, bitiruvchilarga “Muhandis biotexnolog (qishloq xo'jaligi bo'yicha)” kvalifikatsiyasini berishga yo'naltirilgan o'quv mazmuni sohaga xos nazariy bilimlar va amaliy kompetensiyalarni izchil shakllantirishga xizmat qilishi e'tirof etildi. O'quv

rejasini biotexnologiyaning asosiy yo'nalishlarini to'laqonli qamrab oladigan tarzda muntazam rivojlantirib borish, ilmiy-texnologik yangiliklarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish hamda bitiruvchilarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida baholandi. Baholash yakunlariga ko'ra, ta'lim dasturi mazmuni belgilangan akkreditatsiya mezonlari talablariga javob berishi aniqlandi.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

O'quv jarayonini tashkil etish va ta'lim natijalarini baholash tizimiga oid hujjatlar hamda amaldagi amaliyot kompleks ravishda tahlil qilindi. Baholash natijalari o'quv jarayonida akademik halollik tamoyillari aniq belgilanganini, xususan halollik, xolislik, shaffoflik va plagiatning oldini olishga qaratilgan mexanizmlar samarali joriy etilganini ko'rsatdi. Shuningdek, talabalar bilimini baholash tartibi va mezonlarining professor-o'qituvchilar hamda talabalar uchun ochiq va tushunarli tarzda belgilab qo'yilgani, baholash jarayonining izchilligi va xolisligini ta'minlashga xizmat qilayotgani e'tirof etildi. Laboratoriya mashg'ulotlari va topshiriqlari natijalarini amaliy ko'nikmalar bilan uzviy bog'liq holda baholash biotexnologiya sohasida zarur kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish, talabalarining ilmiy-amaliy tayyorgarligini mustahkamlash hamda ta'lim natijalarining sifatini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida baholandi. Baholash yakunlariga ko'ra, o'quv jarayonini tashkil etish va bilimlarni baholash tizimi akkreditatsiya mezonlarida belgilangan talablarga muvofiqligi o'z tasdig'ini topdi.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

Talabalar faoliyatini tashkil etish, qabul jarayonlari va kontingentni boshqarish tizimiga oid hujjatlar hamda amaldagi tartiblar kompleks baholandi. Tahlil natijalari talabalarni qabul qilish mezonlari, akademik mobillik, o'qishdan chetlashtirish va qayta tiklash jarayonlari amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida tartibga solinganini hamda talabalar kontingentini boshqarishning aniq mexanizmlari shakllantirilganini ko'rsatdi. Shuningdek, 200 nafar qabul parametrining mavjud moddiy-texnik, o'quv-uslubiy va kadrlar resurslari bilan muvozanatlashtirilgani ta'lim jarayonini sifatli tashkil etish imkonini berishi e'tirof etildi. Qabul mezonlari hamda talabalar harakatiga oid tartib-taomillarning oldindan e'lon qilinishi ta'lim jarayonining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash, talabalar huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda boshqaruv jarayonlariga nisbatan ishonchni mustahkamlashning muhim omillaridan biri sifatida baholandi. Baholash

yakunlariga ko'ra, talabalar faoliyatini tashkil etish tizimi akkreditatsiya mezonlarida nazarda tutilgan talablarga to'liq mosligi bilan tavsiflandi.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

Inson resurslari yo'nalishi doirasida professor-o'qituvchilar tarkibi, ularning malakaviy darajasi hamda kasbiy rivojlanishiga oid hujjatlar kompleks tahlil qilindi. Baholash natijalari kadrlarni tanlash jarayonida malaka, ilmiy daraja, pedagogik tajriba va kasbiy kompetensiyalar asosiy mezonlar sifatida inobatga olinayotganini, professor-o'qituvchilar tarkibi ta'lim dasturida nazarda tutilgan fanlarni to'liq qamrab olish imkoniyatiga ega ekanini ko'rsatdi. Shuningdek, professor-o'qituvchilarning kasbiy va ilmiy salohiyatini muntazam rivojlantirishga qaratilgan malaka oshirish hamda ularning samarali faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi rag'batlantirish tizimi izchil yo'lga qo'yilgani e'tirof etildi. Biotexnologiya yo'nalishi fanlariga ilmiy-tadqiqot tajribasiga ega mutaxassislarni jalb etish ta'lim mazmunining zamonaviy ilmiy yutuqlar bilan boyitilishi, amaliy tadqiqotlar salohiyatining kuchaytirilishi va bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligini yanada oshirishning muhim omillaridan biri sifatida baholandi. Baholash yakunlariga ko'ra, inson resurslari yo'nalishi belgilangan akkreditatsiya mezonlari talablariga javob berishi aniqlandi.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar hamda mavjud infratuzilma kompleks ravishda baholandi. Tahlil natijalari ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan o'quv auditoriyalari, ixtisoslashtirilgan laboratoriyalar, Axborot-resurs markazi va elektron ta'lim resurslari shakllantirilganini hamda ulardan samarali foydalanish imkoniyatlari yaratilganini ko'rsatdi. Shuningdek, talabalarning zarur o'quv adabiyotlari, elektron axborot bazalari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan muntazam foydalanishi uchun tegishli shart-sharoitlar ta'minlangani e'tirof etildi. Biotexnologik laboratoriya jihozlarini zamonaviy ilmiy-texnologik talablar asosida muntazam yangilab borish amaliy mashg'ulotlar sifatini oshirish, talabalarning laboratoriya ko'nikmalarini rivojlantirish hamda bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligini zamonaviy ishlab chiqarish talablari darajasida shakllantirishning muhim omillaridan biri sifatida baholandi. Baholash yakunlariga ko'ra, moddiy-texnik ta'minot tizimi belgilangan akkreditatsiya mezonlari talablarini to'liq qanoatlantirishi xulosasiga kelindi.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ O'quv rejani biotexnologiyaning barcha asosiy yo'nalishlarini to'laqonli qamrab oladigan tarzda kengaytirish zarurati mavjud.
- ✓ Xalqaro tajribalarni dastur mazmuniga joriy etish imkoniyatlari to'liq ishga solinmagan.
- ✓ Ayrim fanlar bo'yicha zamonaviy adabiyotlar ulushini oshirish talab etiladi.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ O'quv rejani biotexnologiyaning asosiy yo'nalishlari (sanoat, agrar, tibbiy, ekologik) kesimida bosqichma-bosqich kengaytirish.
- ✓ Xalqaro tajribalar va qo'shma dasturlar imkoniyatlarini dasturga joriy etish.
- ✓ Zamonaviy adabiyotlar va elektron resurslar fondini muntazam yangilab borish.
- ✓ Laboratoriya bazasini talabalar kontingentiga mos rivojlantirib borish.

8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universitetida 60710200 – “Biotexnologiya” bakalavriat ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy materiallar, tashkiliy-boshqaruv mexanizmlari, kadrlar salohiyati hamda moddiy-texnik ta'minot kompleks tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida ta'lim dasturini boshqarish va ichki sifatni ta'minlash tizimi samarali yo'lga qo'yilgani, dastur davlat ta'lim standarti, Milliy malakalar ramkasi hamda mehnat bozori ehtiyojlariga muvofiq shakllantirilgani, o'quv jarayoni akademik halollik tamoyillari va shaffof baholash mexanizmlari asosida tashkil etilgani, talabalarni qabul qilish hamda qo'llab-quvvatlash tizimi amaldagi talablarga mos ravishda yo'lga qo'yilgani, professor-o'qituvchilar salohiyati, zamonaviy laboratoriyalar, o'quv-uslubiy ta'minot, axborot-resurs bazasi va raqamli infratuzilmaning ta'lim dasturini sifatli amalga oshirish uchun zarur darajada shakllantirilgani aniqlandi. Baholash yakunlariga ko'ra, 6 ta yo'nalish bo'yicha baholangan barcha 27 ta mezon muvofiq deb topildi. Aniqlangan ayrim jihatlar ta'lim dasturining amalga oshirilishiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan hamda uni yanada takomillashtirishga xizmat qiluvchi tavsiyaviy xususiyatga ega ekanligi

qayd etildi. Umuman olganda, ta'lim dasturining belgilangan akkreditatsiya mezonlari talablariga to'liq javob berishi asoslandi va u muvofiq deb baholandi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	20.07.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	5-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot

